O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Farg‘ona davlat texnika universiteti
rektori R.R.Tojiyev
_____
“ 3 ” 11 2026-yil

08.00.08 – BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura(PhD) va mustaqil izlanuvchilikga qabul qilish bo‘yicha

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona - 2026

Ismanov I.N., Nurmatov O.T., Ermatov A.A., Xojayev A.S. 08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtixoni dasturi. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026. – 24 b.

Mazkur Talablar va baholash mezonlari (keyingi o‘rinlarda - Talablar va mezonlar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi nizom, ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatma hamda tegishli ixtisoslik pasporti inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

Talablar va mezonlar 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo‘yicha talabgorlarning ilmiy tayyorgarligi va rejalashtirilayotgan tadqiqotning asoslanganligini xolis baholash uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:
i.f.d., prof. Ismanov I.N.
DSc, dotsent Xojayev A.S.
PhD, dotsent Ermatov A.A.
PhD, dotsent Nurmatov O.T.
Taqrizchi:
Qurbonov Z.N. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Talablar va mezonlar “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasining 15-oktyabrdagi 3A-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlatsh uchun tavsiya etilgan.

Farg‘ona davlat texnika universiteti ilmiy-texnik kengashi tomonidan 2026-yil 13-oktabr kuni (3-son majlis bayonnomasi) muhokama qilingan va tasdiqlangan

© Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026-yil

KIRISH

Respublikamizda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning bosh maqsadi etib, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam islox, qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish kabilar belgilangan.[1] O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yil 16-iyunida “Oliy ta’lim tizimidagi ustivor vazifalar”ga bag‘ishlangan videoselektorda xam to‘rta ustivor vazifani ko‘rsatib o‘tilgan. Ana shu vazifalarning uchinchisi “Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish”ga qaratilgan[2].

O‘zbekiston Respubliksi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-sonli qaroriga asosan 2021-yil 1-yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi[3]. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishnining zaruriyati shundaki, respublikamizdagi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy faoliyati xaqida xorijiy investorlarni ishonchli va zarur axborotlar bilan ta’minlash, korxonalarni xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, iqtisodiy tahlil, audit, tijorat banklaridagi buxgalter va audit mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlashdan iborat.

08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha tanyach doktoranturaga kirish yuzasidan imtixon dasturi tuzishda yuqorida qayd etilgan talablar inobatga olingan.

08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha tanyach doktoranturaga kirishga talabgorlarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xalqaro buxgalteriya hisobi modellari, iqtisodiy tahlil, audit xamda xalqaro audit standartlarining nazariy va amaliy jihatlariga oid, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish konsepsiyasini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlar to‘lovga layoqatligini baholash va ularni samarali auditini o‘tkazish, shuningdek, byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish xamda tijorat banklarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. PF-6097. https :/Lex. uz/docs/5 0 73 447

[2] https://president.uz/uz/lists/view/4424

[3] O‘zbekiston Respubliksi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‘gi 4611-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4746047

Shuningdek, 08.00.08- “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha tanyach doktoranturaga kirish imtihon dasturi O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXSlari talablari asosida tashkil etish va yuritish, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish hamda auditni rejalashtirish, auditorlik xulosasi va hisobotlarini tuzish masalalarini xam qamrab olgan. Bu esa, talabgorlarning buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, byudjet hisobi va hisoboti xamda bank hisobi va auditining nazariy asoslari borasidagi bilimlarini ham baholash imkonini beradi.

Dastur 08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish yuzasidan talabgorlarning imtihonga tayyorlanish va uni topshirish uchun mo‘ljallangan.

I BO‘LIM. BUXGALTERIYA HISOBI

Buxgalteriya hisobining tarixiy va zamonaviy istiqbollari

Buxgalteriya hisobining paydo bo‘lishi. Ikkiyoqlama yozuvning keng tarqalishi. Italiya, Fransiya, Germaniya buxgalteriya hisobi maktablari. Xalqaro buxgalteriya hisobi ichki hisobdan farq qilinishi. Xalqaro buxgalteriya hisobining ahamiyati va dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‘ti 4611-sonli Qarorining tarixiy ahamiyati.

Buxgalteriya xisobining rivojlanishi va xalkaro tasniflanishi

Buxgalteriya hisobining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Xalqaro buxgalteriya hisobini tasniflanishining ikki kategoriyasi. Buxgalteriya hisobini rivojlantirishning to‘rt yondashuvi. Qonuniy tizim: Umumiy qonun va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun. Buxgalteriya hisobining amaliyot tizimlari.

Buxgalteriya xisobining xalkaro modellari

Buxgalteriya hisobi xalqaro modellarining vujudga kelishi va zaruriyati. Kontinental model va uning ahamiyati. Britan-Amerika modeli va uning mohiyati. Janubiy-Amerika modelining o‘ziga xos xususiyatlari. Islom modelining rivojlanishi. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellarini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini shakllanishiga ta’siri.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari:USGAAP va IFRS

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) tushunchasi va ahamiyati. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Qo‘mita (Fond) maqsadi va uning vazifalari. MHXS Qo‘mitasining tashkiliy tuzilishi. MHXSning etaloni: USGAAP va IFRS. USGAAP - umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillari. IFRS - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. USGAAP va IFRS o‘rtasidagi bog‘liklik va farkli jihatlari.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o‘rni. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi. Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo‘yicha Kengashning maqsadi va uning tavsifi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.

Moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari

Moliyaviy hisobot konseptual asoslarining tarkibi. Moliyaviy hisobning umumiy fundamental qoidalari. MHXS (IFRS) 1 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo‘llash. BHXS(IAS) 8 "‘Hisob siyosatlari, buxgalteriya hisobi maqsadida baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar” standartining mazmuni va qo‘llanilishi.

Joriy aktivlar hisobi

Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobining vazifalari. Pul mablag‘larining ichki nazorati. Hisob kitoblar tizimida bank bilan kelishuv. Kassa muomalalarining hisobini yuritish tartibi. Pul mablag‘lari bo‘yicha kassa, hisob- kitob, valyuta schyoti va bankdagi boshqa schyotlarni tashkil qilish. Bank muassasalaridagi schyotlarni yuritish hisobi. Bankdagi maxsus schyotlar, akkreditiv, chek daftarlari va boshqa maxsus schyotlar bo‘yicha hisoblashishlar.

Tovar-moddiy zaxiralarining xo‘jalik faoliyatida tutgan o‘rni va bu sohada hisobning vazifalari. Tovar-moddiy zaxiralar miqdori va egalik huquqini aniqlash. TMZlar tannarxini hisoblash va ularni baholash usullari. Tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha yo‘qotishlarni baholash. Materialarni turkumlash va baholash. Materiallarni qabul qilishni xujjatlashtirish, materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish. Materiallarni sarflash hisobi: o‘rtacha bahoda, FIFO va boshqa usullar.

Materiallardan foydalanishni nazorat qilish. Inventar va xo‘jalik jixozlari hisobi. Materiallarni hisobga olish tizimlari.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi

Investitsiya faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari. Investitsiyalar to‘g‘risida tushuncha va ularning turkumlanishi. Moliyaviy va real investitsiyalar to‘g‘risida tushuncha, ularni tasniflash va baholash. Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar tarkibi. Qimmatli qog‘ozlar: aksiya, obligatsiya, zayom va boshqalar. Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalarning analitik va sintetik hisobi.

Asosiy vositalarni turkumlash va baholash tartibi. Asosiy vositalarni xo‘jalik balansiga qabul qilish. O‘rnatiladigan uskunalar hisobi. Asosiy vositalar xarakatini xujjatlashtirish. Asosiy vositalarning sintetik va analitik hisobini tashkil qilish. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari. Asosiy vositalarni qayta baholash hisobi.

Nomoddiy aktivlar tushunchasi, ularni tasniflash. Nomoddiy aktivlarni baholash. Nomoddiy aktivlarni qabul qilish. Nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobini tashkil qilish. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi va hisobi.

O‘zbekistonda boshqaruv hisobi konsepsiyasi

Boshqaruv hisobining funksiyalari. Boshqaruv hisobida axborotlar tizimi. Boshqaruv hisobida xarajatlarning tasniflanishi va mazmuni. Xarajatlar xaqida tushuncha. Ishlab chiqarilgan maxsulotlar bo‘yicha tannarxga qo‘shiladigan xarajatlarni umumlashtirish va ularni taqsimlash. Xarajatlar dinamikasi va uni nazorat qilish. Tannarh hisobi tizimi. Xarajatlarning rejalashtirish, nazorat qilish va qaror qabul qilishdagi o‘rni.

Jarayonli, buyurtmali, bosqichli tannarx hisoblash usullari. To‘liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash. Bevosita xarajatlarni mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo‘shish. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish. Xaqiqiy va normativ usullar bo‘yicha xarajatlar hisobi va tannarx hisoblash. “Standart-kost” va “Direkt-kosting‘"usullari.

Xususiy kapital hisobi

Xususiy kapital, uning tarkibi va bu soxada hisobning vazifalari. Kapitalni tashkil qilish manbalari. Ustav kapitalining shakllanishini hisobga olish. Ustav kapitaliga ulushlari bo‘yicha ta’sischilarning qarzlari hisobi. Emission daromad va ustav kapitali shakllanishida kurs farqini hisobga olish. Rezerv kapitalining shakllanishi va ishlatilishi hisobi. Kelgusi xarajatlar va to‘lov rezervlarini tashkil qilish hamda ulardan foydalanish hisobi. Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga olish. Maqsadli moliyalashtirish bo‘yicha tushumlarni hisobga olish.

Majburiyatlar hisobi

Majburiyatlar tushunchasi va ularni baholash. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobi.

Foyda solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibining hisobi. QQS va uni hisoblash hamda to‘lash tartibi. Aksiz solig‘i va uni hisoblash tartibi. Mulk va yer soliqlarini hisoblash va to‘lash tartibi. Yagona ijtimoiy to‘lovlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar hisobi. Ta’sischilar oldidagi majburiyatlarni hisobga olish. Qisqa va uzoq muddatli kredit va karzlar bo‘yicha majburiyatlar hisobi. Turli kreditorlar bo‘yicha majburiyatlarni hisobi.

Moliyaviy natijalar hisobi

Moliyaviy xo‘jalik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlari va ularning shakllanishi. Davr xarajatlarini hisobga olish.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar hisobi. Asosiy (operatsion) faoliyatdan olingan daromadlar, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar, yakuniy moliyaviy natija hisobi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga olish.Taqsimlanmagan foydaning shakllanishi va ishlatilishi hisobi.

Moliyaviy xisobotlarni tuzish va takdim etish

Moliyaviy hisobotning vazifasi, uning tarkibi. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar. Buxgalteriya balansi. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar, ilovalar va izohlar. Soliq va statistik hisobotlar tarkibi.

Moliyaviy hisobot ma’lumotlari va unga auditorlarning xulosasining zaruriyligi.

II-BO‘LIM. “AUDIT”

AUDIT NAZARIYASI

Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari

Auditning paydo bulishi va rivojlanishi. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o‘rni. Audit maqsadi va vazifalari. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli sistemali audit. Tavakkalchilikka asoslangan audit. Audit va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlar. Audit va taftish, ularning o‘xshashlik va farqli tomonlari.

Auditorlik faoliyatining tashkiliy asoslari: majburiy auditorlik tekshiruvi; tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi; nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko‘ra audit o‘tkazish xususiyatlari. Operatsion audit. Muvofiqlik auditi. Moliyaviy hisobot auditi. Ichki va tashqi audit. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.

O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va uning ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi Qarori va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946 sonli qarorini mohiyati. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlarining milliy assotsiatsiyasi (O‘BAMA) va uning faoliyat yo‘nalishlari. O‘zbekiston Auditorlar Palatasi (O‘AP) va uning faoliyati. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.

Auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar

Auditorlik kasbiga malakaviy talablar va auditorlik faoliyatini litsenziyalash. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, litsenziya berishni rad etish, litsenziyaning amal qilish muddatini to‘xtatish, bekor qilish, to‘xtatib turish yoki amal qilishini tiklash. Auditning Axloq kodeksi. Auditor axloqi (yetikasi). Vijdonlilik va obyektivlik. Professional kompetentlilik. Maxfiylik. Omma uchun axborotni taqdim etish. Boshqa auditorlar bilan munosabatlar. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish. Dastlabki, joriy va keyingi nazorat.

Auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik tavakkalchiligi

Muhimlik tushunchasi, muhimlik darajasi, uni aniqlash va audit o‘tkazishda qo‘llash. Muhimlik tushunchasi va uning auditdagi ahamiyati. Muhimlik darajasi, uni aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish tartibi. Muhimlik darajasini auditda qo‘llash tartibi. Auditorlik riski tushunchasi, auditorlik risklarning maqbul to‘plami, uning elementlari va ularni baholash. Auditorlik riski tushunchasi, auditorlik risklarning maqbul to‘plami va unga ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar. Auditorlik risklar maqbul to‘plamining elementlari va ularni baholash. Muhimlik darajasi va auditorlik riski tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi.

Auditorlik tekshirishni rejalashtirish

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Auditni rejalashtirishning bosqichlari. Auditni dastlabki rejalashtirish. Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish. Audit dasturini tayyorlash va tuzish. Auditni rejalashtirishning asosiy tamoyillari. Uyg‘unlik, uzluksizlik va maqbullik tamoyillari. Korxonani auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish ishchi dasturi va auditorlik xizmati ko‘rsatish haqida shartnoma hamda boshqa zarur hujjatlarni tuzish.

Auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi tizimini va ichki nazoratini o‘rganish hamda baholash

Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o‘rganish. Buxgalterlik hisobining tashkil yetilishini o‘rganish. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko‘rsatilgan har bir xodimning vazifalari va mas’uliyatlarining bayoni; hisob siklining muhim uchastkalari bo‘yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish. Korxona hisob siyosatini o‘rganish. Ichki nazorat tizimini o‘rganish. Nazorat muhiti. Korxonadagi buxgalterlik hisobi tizimi. Nazorat amallari.

Auditorlik dalillar

Auditorlik dalillar tushunchasi. Auditorlik dalillarning tayinlanishi va oldiga qo‘yiladigan talablar. Auditorlik dalillarning turlari. Auditorlik dalillarning manbalari. Auditorlik amallari va auditorlik dalillarni to‘plash. Auditorlik dalillarni olish usullari. Analitik protseduralar (tahliliy amallar). Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari.

Ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma’lumotlaridan foydalanish

Ekspert tushunchasi. Ekspert ishidan auditorlik dalil sifatida foydalanish. Ekspert xizmati bo‘yicha pudrat shartnomasi. Ekspert xulosasi. Ekspert xulosasining kirish, tekshirish va xotima qismlari. Boshqa auditorlarning ishi natijalaridan foydalanish. Asosiy auditor. Boshqa auditor. Boshqa auditor taomillari. Asosiy auditor javobiga qo‘yiladigan talablar. Asosiy va boshqa auditorlarning javobgarligi.

Auditorlik tanlash

Auditorlik tanlash tushunchasi. Auditorlik tanlash usullari. Muvofiq (mos)

kelishni tanlab tekshirish. Mohiyatan tanlab tekshirish. Tanlash ko‘lami. Kuzatish birligi. Tanlash birligi. Tanlash uslublari. Saylab olish hajmi. Salmoqli (reprezentativ) tanlash. Tanlangan ma’lumotlarni tekshiriladigan to‘plamga tadbiq qilish. Tekshiriladigan to‘plam. Tasodifiy tanlash. Sistematik tanlash. Uyg‘unlashgan tanlash. Tanlash uslubini shakllantirish, tanlash xatarlari va natijalarni baholash.

Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi

Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash. Auditorlik xulosasi va hisoboti. Auditorlik hisobotining tuzilishi. Auditorlik hisobotining kirish qismi. Auditorlik hisobotining tahliliy qismi. Auditorlik hisobotining yakuniy qismi. Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik. Auditorlik xulosasining tuzilishi. Auditorlik xulosasida adresat. Auditorlik xulosasining kirish qismi. Auditorlik xulosasining qayd etish qismi. Auditorlik xulosasining yakuniy qismi. Auditorlik xulosasining sanasi. Auditorlik xulosasidagi imzolar. Auditorlik xulosalarining turlari. Ijobiy auditorlik xulosasi. Salbiy auditorlik xulosasi. Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish. Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik.

Xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari, ularning rivojlanish tarixi

Xalqaro auditorlik tashkilotlari. Buxgalteriya hisobi standartlari bo‘yicha qqmita (IASC), Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC), Xalqaro auditorlik amaliyoti qo‘mitasi (IAPS)ning faoliyat yo‘nalishlari. Xalqaro auditorlik kompaniyalari. “Katta to‘rtlik” tarkibiga kiruvchi auditorlik kompaniyalari. Price Waterhouse, KPMG, Ernst and Young, Deloitte Touche Tohmatsu International auditorlik kompaniyalari va ularning faoliyat yo‘nalishlari.

Chet mamlakatlarda auditorlik faoliyati

AQSHda auditorlik faoliyati. Germaniyada auditorlik faoliyati. Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyati. Fransiyada auditorlik faoliyati. Italiyada auditorlik faoliyati. Ispaniyada auditorlik faoliyati.

Yaponiyada auditorlik faoliyati. Xitoyda auditorlik faoliyati. Hindistonda auditorlik faoliyati. Janubiy Koreyada auditorlik faoliyati. Saudiya Arabistonida auditorlik faoliyati.

Rossiya Federatsiyasida auditorlik faoliyati. Ukrainada auditorlik faoliyati. Belarus Respublikasida auditorlik faoliyati. Ozarbayjonda auditorlik faoliyati. Qozog‘istonda auditorlik faoliyati.

Auditning xalqaro standartlari

Audit standartlari haqida tushuncha. Xalqaro audit standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish jarayoni. Audit standartlarining asosiy tarkibiy qismlari. Audit standartlarining turlari: umumiy standartlar, ishchi standartlar, hisobot standartlari,

maxsus standartlar.

Ichki audit asoslari

Moliyaviy nazorat tizimida ichki auditning o‘rni. Ichki auditning me’yoriy-huquqiy asoslari. Ichki audit xizmatini tashkil etish. Ichki auditni rejalashtirish. Ichki audit usullari .Ichki auditni o‘tkazish. Hisobning alohida bo‘limlarida ichki auditni o‘tkazish tartibi. Ichki audit natijalarini umumlashtirish

AMALIY AUDIT

O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimi va unda auditning tutgan o‘rni

«Amaliy audit» fani predmeti, obyektlari va funksiyalari, xamda boshqa fanlar bilan aloqasi. Davlat nazoratini tashkiliy tuzilmasi. Iqtisodiy nazorat tizimida tashqi audit. Moliyaviy nazorat tizimi: Davlat moliyaviy nazorati; idoraviy nazorat; jamoa nazorati va mustaqil nazorat. Davlat moliya nazoratini darajalar bo‘yicha qayta tashkil qilish masalalari va ularni hal etish yo‘llari. Hukumat organlari miqyosida moliyaviy nazoratni takomillashtirish: Ijro etuvchi hukumat organlari nazorati; qonun chiqaruvchi organlar moliyaviy nazorati va sud organlari moliyaviy nazoratini tashkil qilish va rivojlantirish muammolari. Moliyaviy hisobot auditi hamda operatsion auditni takomillashtirishda davlatning o‘rni.

Asosiy vositalar xarakati bilan bog‘liq muomalalar auditi uslubiy muammolari

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. auditorlik amallar Asosiy vositalar xarakati bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Nomoddiy aktivlar xarakati bilan bog‘liq muomalalar auditi uslubiy muammolari.

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. auditorlik amallar Nomoddiy aktivlar xarakati bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Tovar moddiy zaxiralari xarakati bilan bog‘liq muomalalar auditining uslubiy muammolari

Tovar moddiy zaxiralari auditining asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar xamda tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dasturi. Tovar moddiy zaxiralari xarakati bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. TMZlar moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Xisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar bo‘yicha muomalalar auditining uslubi

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. auditorlik amallar Xisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Xisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Xodimlar bilan mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha muomalalari auditining uslubi

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar.Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. Xodimlar bilan mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Xodimlar bilan mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Pul mablag‘lari xarakati bilan bog‘liq muomalalar auditining uslubi

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. Pul mablag‘lari xarakati bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Pul mablag‘lari moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog‘liq muomalalar auditining uslubiy muammolari

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar.Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. Maxsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog‘liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti. Maxsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog‘liq muomilalarni moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Korxona ustav, qo‘shilgan va rezer kapitallari auditining uslubiy muammolari

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. Korxona ustav, qo‘shilgan va rezer kapitallari xarakati bilan bog‘liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti. Uz kapitalining moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Moliyaviy natijalar auditi uslubiyotining muommalari

Asosiy qonun va me’yoriy hujjatlar. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur.

Moliyaviy natijalar xarakati bilan bog‘liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. Moliyaviy natijalarning moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo‘ladigan ayrim xatoliklar.

Auditorlik tekshiruvi natijalari bo‘yicha auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash

Auditorlik tekshiruvi natijalari bo‘yicha auditorlik hisobotini tayyorlash tartibi.

Auditorlik xulosalarining tarkibi va ular mazmuni. Qo‘shimcha sharh berilmagan shartsiz auditorlik xulosalari. Izohsiz auditorlik xulosalari va uning salmog‘i. Qo‘shimcha sharh berilmagan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o‘zgargan auditorlik xulosalari. Noaniqlik holati. Noaniqlik holati mavjud sharoitida tushuntirish abzatsi. Hisob prinsiplari o‘zgargandagi tushuntirish abzatsi. Tushuntirish abzatsi talab qiladigan tartib va taqqoslashlarga ta’sir qiluvchi holatlar. Standart hamkorlikdagi auditorlik xulosasi. Qo‘shimcha sharh berilmagan xulosalar taqdim etishdan chetlatish shartlari. Fikr berishdan bosh tortish hollari.

Operatsion audit asoslari va ekologik auditni tashkil qilish

